



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## AYOLLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO`RAVONLIK HOLATLARI.

**Muhammadiyeva Durdona Axror qizi**

*SamDU talabasi*

**ANNOTATSIYA.** *Mazkur maqolada O`zbekiston hududida yuz berayotgan va jamiyatning ulkan muammosiga aylanib borayotgan, ayollarning zo`ravonlikka uchrash holati hamda zo`ravonlik sabablari va travmalar, ularga qanday yordam berish, huquqiy jazolar va statistikalar tahlil qilinadi. So`ngi yillarda mamlakatimizda aynan shu jinoyat uchun yangi qonun va jazolar ishlab chiqilganligi, ularning amalda qo`llanishi va ruhiy travmalar yoritib beriladi.*

**KALIT SO`ZLAR.** *Zo`ravonlik, jismoniy ruhiy va oilaviy zo`ravonlik, ayollar huquqlari, himoya orderi, ijtimoiy adolat.*

### **KIRISH.**

**“Ayollarning ko`zidagi qo`rquv –jamiyatning jimligi natijasidir”.**

Zo`ravonlik bu har bir jamiyat illatidir. Bugungi kunda ayollarga qilinayotgan zulm va tazyiq insonni qayg`a soladi. Bu muammo nafaqat O`zbekistonda balki butun dunyo miqyosida global masalaga aylanib ulgurdi. Statistik ma`lumotlarga qaraganda oilada, ish joylarida, jamoat joylarida turli shakldagi zo`ravonlik holati kuzatilmoqda. Minglab ayollar hali hamon tazyiq ostida, huquqlari toptalgan holda kun kechirmoqda. Shu bois bu mavzuni chuqur o`rganish va unga qarshi samarali mexanizimlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **ASOSIY QISM.**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`kidaganidek “Ayollarga nisbatan har qanday zo`ravonlik – insoniylikka zid harakatdir”. Zo`ravonlik – bir shaxs yoki guruh tomonidan boshqa bir shaxsga jismoniy, ruhiy va jinsiy zarar yetkazish, uni kamsitish hamda huquqlarini cheklashga qartilgan har qanday harakat yoki tahdiddir. Zo`ravonlik asosan jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy, ijtimoiy zo`rvonlik kabi turlarga bolinadi.

Jismoniy zo`ravonlik – turtish, urish, tan jarohati yetkazish va shunga o`xshash harakatlar.

Ruhiy (psixologik) zo`ravonlik – haqoratlash, tahdid qilish, qo`rqitish, doimiy kamsitish va izolyatsiya.

Jinsiy zo`ravonlik – majburlash, roziligisiz jinsiy aloqa qilish va har qanday jinsiy tahdid.

Iqtisodiy zo`ravonlik – moliyaviy nazorat, ayollarni ishlash va pul topish huquqidan mahrum etish.

Ijtimoiy zo`ravonlik – insonni oilasidan, do`stlaridan yoki jamiyatdan ajratish.

Ayollarga nisbatan zo`ravonlik bu uzoq tarixdan beri davom etib kelayotgan illatdir. Bunday hodisalar vaqt o`tishi bilan o`zgarib borgan, lekin butunlay yo`q bo`lmagan. Zo`ravonlik asosan ayollarni bo`ysundirish, ularni biror ishga majburlashga qaratilgan



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



harakat sifatida amalga oshiriladi. Kuzatishlar natijasida moddiy qaramlik ya'ni ayol o'zini yoki oilasini mustaqil ta'minlay olmasligi, "Oila ichidagi muammo oila ichida hal etilsin" degan tushuncha, turli hildagi tahdidlar ayollarimizni jim qolishlariga, zo'rvonlikka uchrashlariga sabab bo'layotgan ekan. Statistikalarga qaraganda ayollar va qizlarga nisbatan zo'rvonlik holatlari pandemiya darajasidagi muammo ekan va dunyo bo'yicha har uch ayoldan biri hayoti davomida kaltaklanish, jinsiy aloqaga majburlanish yoki boshqa yo'l bilan zo'rvonlikka duchor bo'lish holatlaridan aziyat chekkan. O'zbekistonda bu ko'rsatkich yildan yilga oshib bormoqda 2021 yilda 39 343ta himoya orderi berilgan ularning taxminan 34 330tasi oilaviy muhitda sodir bo'lgan zo'rvonlik. 2022 yilda 32 783 ta ayolga zulm va tazyiq yuzasidan himoya buyruqlari berilgan. 2025 yilning birinchi yarim yilligi davomida 48 303 ta zo'rvonlik holati ro'yhatga olingan. Eng ko'p holatlar Toshkent viloyati (9414), Buxoro (5612), Qashqadaryo (5268) va Andijon (4808) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Zo'rvonlik natijasida ayollarda depressiya o'zini past baholash va ishonchsizlik holatlari paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Bu esa bir insonga kuchli ruhiy zarar berish deb baholanadi.

Yurtimizda ayollarga nisbatan zo'rvonlik holatlariga qarshi jazolar va huquqiy tartiblar bir necha qonun va huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Agar ayolga jismoniy shikast yetkazilgan bo'lsa, jinoyat kodeksi bo'yicha:

**JISMONIY ZO'RAVONLIK** – O'rta og'ir shikast uchun 3 – 5yilgacha ozodlikni cheklash yoki qamoq. Og'ir shikast uchun 5 – 10 yilgacha qamoq jazosi.

**RUHIY ZO'RAVONLIK VA TAZYIQ** – Ruhiy zo'rvonlik uchun huquqiy tartiblar protection order (himoya buyrug'i) orqali amaolga oshadi. Sud ayoldan tazyiq qilayotgan shaxsni uzoqlashishini talab qilishi mumkin.

**JINSIY ZO'RAVONLIK** holatlarida jinoyat kodeksining 131- 134 moddalariga asosan 10 yildan 20 yilgacha, voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'rvonlik ( ko'p marotaba) jinoyat kodeksining 134 – moddasiga asosan 15 yilgacha yoki uzoq muddatli qamoq jazosi tayinlanadi.

Ayollarni har tomonlama qo'llab quvvatlash va ularni himoya qilish uchun bir qancha davlat nodavlat tashkilotlar nomi va vazifasini keltirib o'taman: "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi" vazifasi oiladagi zo'rvonlikni oldina olish, profilaktika, maslahat xizmatlari. "Ichki ishlar vazirligining hududiy bo'limlari (Jinoyat ishlari bo'limini, Patrul xizmatlari) vazifasi: Zo'rvonlik holatlarini tezkor aniqlash, himoya buyrug'i berish. "Sudlar va sud himoya buyrug'i tizimi" vazifasi: Oiladagi zo'rvonlik holatidan tezkor himoya qilish va tazyiqni cheklash. "Sog'liqni saqlash vazirligi psixologik yordam bo'limlari" vazifasi: Ruhiy travma va stressni kamaytirish uchun bepul maslahatlar. Nodavlat va xalqaro tashkilotlar: "Gender tengligi va ayollar huquqlari markazi" vazifasi: Ayollarga huquqiy va psixologik yordam. "Ayollar va Jamiyat" vazifasi: Oilaviy zo'rvonlikka qarshi treninglar va maslahatlar. "UN WOMEN (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)" vazifasi: Zo'rvonlikka qarshi dasturlash, moliyaviy va huquqiy yordam. "UNFPA O'ZBEKISTON" vazifasi: Ayollarga va qizlarga tibbiy, ruhiy va huquqiy yordam.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Zo`ravonlik og`ir jinoyat va shavqatsizlikdir. 24- noyabr 2021yil –da “Birgalikda zo`ravonlikni yengamiz!” forumida Shahnoza Mirziyoyeva “Men har qanday zo`ravonlik ildizini quritish yo`lidagi kurashda sizning oldingizda bo`laman”deya ta`kidlaydi. 6- dekabr 2022-yilda “Zo`ravonlikka qarshi kurash” kanferensiyasida aytilgan fikrlari: “Oiladagi zo`ravonlik faqat bir oilaning ichki ishi emas, bu muammo, mas`ulyat butun jamiyatga tegishlidir”. Huddi shu kabi fikrlari bilan Shahnoza Mirziyoyeva doimo ayollarga nisbatan zo`ravonlikni qoralaydi va jabrlangan ayollar yonida turadi.

Shu o`rinda Nazifa Kamalovani “Mustaqil kuzatuvlarga ko`ra, O`zbekistonda ayollarga nisbatan eng ko`p qo`llanilgan zo`ravonlik turi oiladagi zo`ravonlik” degan fikrini keltiraman. Oiladagilar o`z turmush o`rtog`i va qiziga, hatto o`z onasiga ham jismoniy zo`ravonlik qilgan holatlari kuzatiladi. Bundan tashqari BMTning sobiq bosh kotibi Ban Ki – moon “Zo`raavonlikni mutlaqo qabul qilib bo`lmaydi, kechirishga yaroqsizva bardosh bera olmaydigan holat” deb aytadi. BMTning hozirgi bosh kotibi Antonio Guterres “Ayollar va qizlar zo`ravonlikdan holi hayotga haqli” deb ta`kidlaydi.

### **XULOSA.**

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, zo`ravonlik, zulm hamda taziyiq holatlarida nafaqat masul shaxslar balki butun jamiyat birlashgan holda zolimga qarshi chiqa olishi kerak. Aytib o`tganimizdek, zo`ravonlik holatlari ortib bormoqda. Eng achinarlisi hali oshkor qilinmagan zulm ham talaygina. Jim bo`lish, berkitish, chidash hech narsani o`zgartirmaydi. Zulmga aslo bo`yin egmaslik, hamda boshqalarning bo`yin egishini jimgina kuzatmasligimiz darkor. Kurashish va harakat qilish lozim. Yodda tutishimiz lozimki “Alanga bo`lishi uchun birgina uchqun yetarli aslida” ya`ni har bir kichik yordam, kichik e`tabor zo`ravonlik qurbonining hayotida kata o`zgarishlarga olib kelishi mumkin. Jamiyat va davlatning birgalikdagi harakatlari orqali ayollarga nisbatan zo`ravonlikni kamaytirish va ularni himoya qilish imkoniyatlari kengayadi. Ayollarning huquqlarini toptashga va ularga past nazar bilan qarashga hech kimning haqqi yo`q.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
- 2.BMTning “Ayollarga nisbatan zo`ravonlikka barham berish to`g`risidagi deklaratsiyasi”.
- 3.”O`zbekistonda ayollarga nisbatan zo`ravonlik holatlari va unga doir chora tadbirlar” maqolasi.
- 5.O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.
- 6.”Ayollarga nisbat sodir etilayotgan zo`ravonlik jinoyatlarini oldina olish” maqolasi.
- 7.”Ayollarga nisbatan zo`ravonlikning oldina olish to`g`risida”gi Qonun

